

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 23 - sentabr

223-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 26-iyuldagi 03/28840-sonli xatiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 15-sentyabrdagi RS/12-02/3763-sonli xatini inobatga olib,

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joriy yilning 7-10 avgust kunlari Qozog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi B.Atamqulov Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi tomonidan 2023-yil 2-avgustdagi dastur asosida belgilangan tadbirlarga sarflangan 1 937 800 so'm (bir million to'qqiz yuz o'ttiz yetti ming sakkiz yuz so'm) pul mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratsish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) Qozog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi B.Atamqulovning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomida sarflangan mablag'larni qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi boshqarmasi (B.Utambetov) ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi A.Ismailov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov